

## SHAHRIXON SHEVASINING KASB-HUNAR LEKSIKASI

### Islomov Ibratjon Inomjon o'g'li

**Annotatsiya:** Ushbu maqola Andijon viloyati Shahrixon shevasining kasb-hunar leksikasi lingvistik tahlil qilinadi. Sheva tarkibidagi kasb -hunarga oid yangi so`zlarni o`rgatadi. Shuningdek, kasb-hunar atamalarining mantiqiy xususiyatlari va ular orqali mahaliy madaniyatni anglash masalalariga e`tibor qaratiladi.

**Kalit so`zlar:** Shahrixon shevasi, kasb -hunar leksikasi, yangi terminlar, madaniy meros.

Shahrixon shevasi O'zbekistonning asosan shimoliy tomonlarida joylashgan.

Andijon viloyatida keng tarqalgan. Ushbu sheva nafaqat leksik, morfologik, fonetik,sintaktik xususiyatlari bilan o`ziga xosdir. Shu jumladan kasb- hunar leksikasi ham boydir. Ushbu maqolada kasb-hunarga oid yangi terminlar bilan tanishtiradi.

### Shahrixon kasb -hunar leksikasining terminlari.

Shahrixon shevasida kasb-hunarga oid so`zlar keng tarqalgan. Ayniqasa hunar turlari keng yoyilgan. Ulardan pichoqchilik, duratgorchilik, chilangarlik, zargarlik, beshikchilik, do`ppichilik kabi hunarlar mavjud. Pichoqchilikni olib qaraydigan bo`lsak, pichoqni 40 ga yaqin turi bor. Shahrixonga 1792 – yili birinchilardan bo`lib, Rahmatxo`ja Alixo`jayevning avlodlari olib kelgan. Pichoqchilikda har bir pichoqni o`ziga xos ajralib turadigan xususiyatlari shu bilan bir-biridan farq qiladi.

Shahrixon pichoqlari ikkiga tog`ri va qayqi pichoqlarga bo`linadi. Tig` qismi to`g`rib bo`lsa, tog`ri pichoq, tig` qismi uchi yuqoriga qayrilgan bo`lsa, qayqi pichoq deb nomlanadi. Ayni vaqtida tolbargi, suqma, isorcha,bahorcha, qozoqcha, ov pichog`i, shahrixon pichoq, chayon pichoq, harbiy pichoq, milliy

qayrama pichoq, oxotichniy pichiq, qassob pichoq, dudama pichoq, muskulband pichoq, dandon pichoq, file pichog`i, tanto pichog`i, santaku pichog`i, chalabuzar pichoq kabi turlar mavjud. Endi Shahrixon pichoqlarini o`ziga xos tomonini o`rganib chiqamiz. Dandon sopli pichoq to`g`ri pichoqlar turiga kiradi. Tig` qismi o`tkir bo`lib, dastasi fil, morj, tuylen tishlaridan yasaladi. Pichoqning dum qismi suyak ichiga mustahkam qatiriladi. Chayon pichog`I qayqi pichoqlar turiga mansub bo`lib, uch qismi qayrilgan dum qismi esa chayon kabi qayrilgan bo`ladi. Ov pichog`i tig` qismi qalin bo`ladi, sababi hayvonlarni ovlashda daraxt shoxlarini kesishda qulay. Shahrixon pichog`i to`g`ri pichoqlar turiga mansub, tig` qismi uzun va o`tkir bo`ladi, dasta qismi esa ikki yonidan qatiriladi. Bu pichoqlarni o`ziga xos tomoni.

Folklor va Dialektologiya yo‘nalishi 2-kurs magistranti.

### **Kasb-hunar leksikaning paydo bo`lish turlari:**

Shahrixon shevasidagi kasb-hunar leksikasi asoson quydagি omillar ta`sirida shakllangan:

- O`troq xalqning tarixiy kasblari. (masalan, hunarmandchilik, ko`p yillik tarixi Shahrixon hududida markaziy o`rin tutgan.)
- Hududiy iqlim sharoiti va tabiiy resusrlari.(hunarmandchilik va dehqonchilik bilan bog`liq terminlar.)
- Boshqa tillardan kirib kelgan so`zlar.( maslan, arab , fors, rus, tojik tillaridan kirib kelgan atamalar)

### **Funksinal vazifasi va zamonaviy tendensiyasi.**

Shahrixon shevasidagi kasb- hunar leksikasi amaliy tilshunoslikda muhim o`rin tutadi.U mahaliy xalq orasida nafaqat kundalik hayotda, balki madaniy – tarix asarlarda, xalqa og`izaki ijodida va bayon uslubida ham keng tarqalgan. Bugungi kunda zamonaviy texnologiyalar va yangi terminlarning kirib kelishi natijasida ayrim an`anaviy leksik birliklar unutilib borayotgani kuzatilmoqda.

Shahrixon shevasidagi kasb- hunar atamalari yangi davr talablari asosida yangicha mazmun kasb etmoqda.Masalan kasb hunar texnikasi bilan bog`liq yangi so`zlarning xalq tiliga kirib kelishi yoki eski atamaning zamonaviy kontekstsda

qo'llanishi bunga yaqqol misol bo'ladi.

**Foydalaniman adabiyotlar ro`yxati.**

- 1.Mahmudov.SH. (2010) O`zbek shevalari va ularning kasb -hunar leksikasi.
- 2.Abdullayev. M (2008) O`zbek tili va uning leksik xususiyatlari. Toshkent .Akademiya..
- 3.Ergashev . E. (2015) Shahrixon shevasidagi kasb-hunar leksikasi. Toshkent . O`zbekiston .
- 4.Ismoilova. F. (2016) Shevalarda ijtimoiy leksikaning rivojlanishi. Toshkent. O`zbekiston.
5. Ibrohimov.S. (1959) Farg`ona shevasining kasb-hunar leksikasi. O`zbekiston fanlar Ademyasi.